

INSON IRODASINING LISONIY IN'IKOSI: "THE OLD MAN AND THE SEA" VA "QUTLUG' QON" ASARLARINING KONSEPTUAL TAHLILI

Sattorova Nafisa Isomidinovna

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institutida o'qituvchi,

SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi

Fine-2014@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" qissasi hamda Oybekning "Qutlug' qon" romani misolida "kurash" va "sadoqat" konseptlarining badiiy-lisoniy voqelanishi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda g'arb va sharq adabiy diskursida ushbu tushunchalarning o'ziga xos semantik maydonlari, kognitiv xususiyatlari va leksik-frazeologik ifodalanishi o'rganiladi. Lingvistik tahlillar natijasida kurash konseptining ingliz tilida individualistik, o'zbek tilida esa sotsio-etnik xarakterga ega ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, kurash, sadoqat, semantik maydon, badiiy diskurs, E. Heminguey, Oybek, qiyosiy tilshunoslik.

ABSTRACT

This article provides a comparative linguistic analysis of the concepts of "struggle" and "loyalty" as manifested in Ernest Hemingway's novella "The Old Man and the Sea" and Oybek's novel "Qutlug' qon". The study explores the unique semantic fields, cognitive characteristics, and lexical-phraseological expressions of these concepts within Western and Eastern literary discourses. Linguistic analysis reveals that the concept of "struggle" embodies an individualistic nature in the English context, whereas in the Uzbek context, it possesses a socio-ethnic character.

Keywords: concept, linguaculturology, struggle, loyalty, semantic field, literary discourse, E. Hemingway, Oybek, comparative linguistics.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный лингвистический анализ художественного воплощения концептов «борьба» и «верность» на примере повести Эрнеста Хемингуэя «Старик и море» и романа Ойбека «Qutlug' qon». В исследовании изучаются специфические семантические поля, когнитивные особенности и лексико-фразеологические выражения этих понятий в западном и восточном литературном дискурсах. В результате лингвистического анализа выявлено, что концепт «борьба» в английском языке носит индивидуалистический характер, в то время как в узбекском — социально-этнический.

Ключевые слова: концепт, лингвокультурология, борьба, верность, семантическое поле, художественный дискурс, Э. Хемингуэй, Ойбек, сравнительное языкознание.

KIRISH (Introduction)

Lingvistik olam manzarasi (linguistic picture of the world) har bir xalqning o'ziga xos tafakkur tarzini aks ettiradi. "Kurash" va "Sadoqat" konseptlari universal (global) xarakterga ega bo'lsa-da, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi semantik ko'lami farqlanadi. Mazkur tadqiqot ushbu konseptlarning E. Heminguey va Oybek matnlaridagi leksik-semantik voqelanishini tadqiq etadi. Bilamizki, zamonaviy tilshunoslikda konseptlar olamni til orqali anglashning asosiy birliklari hisoblanadi. "Kurash" va "sadoqat" konseptlari insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida fundamental ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

METODLAR (Methods)

Maqolada distributiv tahlil va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Hemingwayning "The Old Man and the Sea" (original matn) va Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi leksik birliklar olindi. Tadqiqot jarayonida komponent tahlil (so'z ma'nolarini bo'laklarga ajratish) va kontekstual semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, har ikki tildagi konseptual maydonlarni (conceptual fields) aniqlash uchun lug'at ta'riflari badiiy matndagi qo'llanilishi bilan solishtirildi.

NATIJALAR (Results) - LINGVISTIK TAHLIL

"Kurash" konseptining semantik xaritasi

Inglizcha diskursda (Hemingway): "Struggle" (kurash) konsepti asarda ko'pincha "Endurance" (bardosh) va "Pain" (og'riq) leksemalari bilan bitta semantik maydonni tashkil qiladi. Heminguey tili lakonizmga asoslangan.

Masalan: "He settled against the wood and took his suffering as it came" jumlasida kurash - jismoniy og'riqni qabul qilish ("taking suffering") orqali ifodalangan.

Bu yerda kurashning lisoniy modeli: Subject + Endures + Pain = Victory.

O'zbekcha diskursda (Oybek): Oybekda "kurash" konsepti ko'proq "Haq", "Adolat" va "Qon" leksemalari bilan zanjirlanadi. "Qutlug' qon" nomining o'ziyiq kurashning semantik markazida "qurbon berish" (sacrifice) komponenti borligini ko'rsatadi.

Yo'lchi obrazida kurash modeli: Inson + Adolatsizlik = Isyon.

"Sadoqat" konseptining lingvokulturalogik qiyosi

Lingvistik tahlil shuni ko'rsatdiki, "sadoqat" tushunchasi ikki xil lisoniy vosita orqali voqelanadi:

Hemingwayda: "Faithfulness to the craft" (hunarga sadoqat). Baliqchi Santiago dengizni "La Mar" (ayol jinsida) deb atashi orqali unga bo'lgan lisoniy sadoqatini (personifikatsiya) ifodalaydi.

Oybekda: "Diyonat" va "Vafodorlik". Yo'lchi nutqida "tuz-namakni unutmashlik" kabi frazeologik birliklar uchraydiki, bu sadoqat konseptining milliy-madaniy qatlamini (etno-lingvistika) ochib beradi.

MUHOKAMA (Discussion)

Ingliz tilidagi "The old man and sea" asaridan olingan ushbu jumla "A man can be destroyed but not defeated" g'arb individualistik kurashining lisoniy cho'qqisidir. Ushbu gapda "defeat" (mag'lubiyat) va "destroyed" (yakson qilish) qarama-qarshiligi orqali kurashning jismoniy emas, ma'naviy kategoriyasi (modality of will) ochib berilgan.

Oybek (Yo'lchi) O'zbek tilidagi "Qutlug' qon" asaridan olingan quyidagi jumlada esa "Nomus o'limdan qattiq" sharqona jamoaviy va axloqiy sadoqatning ifodasidir. "Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi. Biz qul emasmiz, erk uchun tug'ilganmiz!" ("Qutlug' qon" Yo'lchi) Bu yerda kurash "haqiqat", "erk" va "qul" antitezasi orqali ifodalanadi. Kurashning maqsadi — ijtimoiy statusni o'zgartirish (social transformation). Lingvistik nuqtayi nazardan, Heminguey ko'proq fe'l-predikatlarga, Oybek esa hissiy-ekspressiv bo'yoqdor sifat va otlarga urg'u beradi.

"He is my brother. But I must kill him... I am glad we do not have to try to kill the stars." ("The old man and the sea" Santyago) Ushbu gapda sadoqat "brother" (birodar) metaforasi orqali berilgan. Bu yerda qotil va qurbon o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik — tabiat qonuniyatiga sadoqatni anglatadi.

"Gulnor, senga bergan va'dam — qalbidagi imonimdir Inson lafzidan qaytsa, u inson emas." (., Qutlug' qon" - Yo'lchi)

Yuqorida keltirilgan misolda esa sadoqat "va'da", "imon" va "lafz" tushunchalari bilan tenglashtiriladi. Bu o'zbek lingvokulturasida uchun xos bo'lgan "sadoqat = e'tiqod" modelidir.

XULOSA (Conclusion)

Heminguey diskursida kurash ko'proq shaxs (I) va tabiat (Nature) o'rtasidagi duel sifatida "struggle", "fight", "endurance" kabi dinamik fe'llar bilan ifodalanadi.

Oybek diskursida kurash shaxs (I) va ijtimoiy adolatsizlik (Society) o'rtasidagi to'qnashuv bo'lib, "adolat", "haq", "nomus" kabi statik, ammo emotsional yuklangan otlar bilan ifodalanadi.

Har ikki tilda ham "Sadoqat" konsepti qahramonning ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi lingvistik markaz (nucleus) bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki tilda "kurash" va "sadoqat" konseptlari insonning yengilmas irodasini ifodalaydi. Biroq, lingvistik darajada Hemingueyda bu antropotsentrik (inson va uning kuchi), Oybekda esa teotsentrik va sotsiotsentrik (axloq va jamiyat) asosga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Hemingway, E. (1994). *The Old Man and the Sea*. New York: Scribner.
2. Oybek. (2015). *Qutlug' qon*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press.
4. Safavov, Sh. (2001). *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor.
5. Stepanov, Yu. S. (2004). *Konsepti. Slovar russkoy kulturi*. Moskva: Akademicheskiiy proyekt.
6. Boltayeva, B. (2019). *Badiiy matnda konseptual semantika tahlili. O'quv qo'llanma*.
7. N.I.Sattorova Ernest Hemingway asarlarida badiiy konseptning voqelanishi, "Tamaddun nuri" ISSN:2181-8258 4-son(55), 2024-yil